

---

## “VATANPARVARLIK OYLIGI” DAVOM ETMOQDA



### “Vatanparvarlik oyligi” davom etmoqda

Yurtimizda 15-yanvargacha davom etadigan “Vatanparvarlik oyligi” doirasida, 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligiga bag‘ishlangan keng qamrovli tadbirlar o‘tkazilmoqda. So‘x tumanidagi Guliston mahalla fuqarolar yig‘inida o‘tkazilgan tadbir esa ushbu oylikning yorqin namunasidir.

Mazkur tadbir tuman hokimligi, tuman ma'naviyat va ma'rifat markazi, tumandagi harbiy qismlar hamda tumandagi mazkur ta'lim dargohi hamkorligida amalga oshirildi.

Tadbir doirasida ta'lim dargohi sport zalida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari qudratini namoyish etadigan ko‘rgazma va harbiylarning harbiy tayyorgarligini in'ikos etadigan mashqlar o‘tkazildi. Yosh talabalarga qurol-aslahalar ko‘rgazmasi ham tashkil etildi.

Bu kabi tadbirlar milliy g‘ururimiz va armiyamiz kuch-qudratini yoshlar ongida yanada mustahkamlashda davom etadi. Zero, bugungi tinchlik va osuda hayotimiz – Qurolli Kuchlarimizning fidokorona xizmatining natijasidir.







---

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-10 18:00:25